

This is not registered version of TotalDocConverter

Sig'ir tutinga o'sh katta voronda qat'iyat bo'lgan. - Hech o'ta jiddiy qiyofadagi kishilar ertalabdan beri munozora qilishadi.

- Yo'q, yo'q. Men ololmayman. Bemorning dardi jarroxlik emas. Uni terapevt olsin. - dedi sakkizinchi marta so'z olgan jarrox Jovliev.

- Ye, nega endi? Bemor chisto infeksiioniy-ku?! Tag'in izidan hech kimi yo'q ekan. Uni yuqumli kasalliklar bo'limiga yotqizish kerak. Tamom-vassalom. - etiroz bildirdi terapiya bo'limi boshlig'i xo'ppasemiz Qorbosdiev.

- Hech qachonda. Bemorning barcha dardi o'pkasida-ku. Uni sil kasallar bo'limiga yotqizish kerak. - dedi infeksiionist pashsha qo'riyotgandek qo'l siltab.

- Rentgentda sil belgisi ko'rmadim. Dardi jigarida. U terapevtniki. - dedi o'ninchi marta to'ng'illab To'ng'izboev.

- Hechamda. Asli hamma gap yurakdan. Uni kardiolog olaqolsin. Palatasi bo'shab yotibdi. - dedi Qorbosdiev boshqalarga ko'z qisib.

- Prichyom bu yerda yurak. Bemorning qorni taranglashgan-ku?! Yasno. U jarroxlarniki. - dedi qoshini suzib kardiolog Kurraev.

- Ha, aytgancha, yaxshisi bemorni reanimatsiyaga yotqizsak-chi?! - dedi nihoyat jarrox Jovliev. - Hammamiz navbat bilan borib ko'rib turardik...

- Bekorlarning beshtasini aytibsiz. Hisobot-chi?! - dedi mudrab o'tirgan reanimatolog o'assolov birdan chiyillab. - O'limning hisoboti yana mening bo'yninga tushadimi? Yo'q, yo'q, bo'maydi. Sil bo'lsa, ftiziatr olsin-da-e...

- Yo'q. Meniki emas. Infeksiionist olsin.

- Bemor terapevtniki.

- Bekor aytibsiz, u kardiologniki.

- Yo'q, u jarroxniki...

Kun peshindan og'di. Ular esa...

Nihoyat eshik shiddat bilan ochilib qabulxona xamshirasining bo'g'riqqan yuzi ko'rindi.

- Mumkinmi?

- Xo'sh?! Nima gap?..

Hamma unga tikildi.

- Duxtur, koridorda kechadan beri yotgan bemorning tanasini nima qilaylik?

- A?!..

Konsilium ishtirokchilari xamshiraga bir zum hayrat bilan tikilib qolishdi. So'ng yuzlaridan xayrat yo'qolib, o'rniga mamnunlikka o'xshagan bir ifoda paydo bo'ldi.

- O'ldimi-ey?!

- He, bechora-ey...

- O'zi juda og'ir edi-da...

- Ha-a. Nachora, bandachilik...

So'ng duxturlar bir-biriga qarashganicha bir ovozdan xamshiraga javob qilishdi:

- Qaerga bo'lardi, o'likxonagada. Morgga...

Xamshira yugurib ketdi. Xonada o'tirganlar ham sekin qo'zg'olishdi. Uy-uyiga...